



10.01.2022 даги

Toshkent viloyati "Toza xudud" DUK ва Куйчирчик тумани МТБ ўртасида 8034475,00 сўм умумий суммага тузилган 17 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

| | | |
|-------------------------|-----------------------------|-------|
| Боб | 251 | |
| Шахсий газна хисобварак | 100022860272337091100251017 | |
| | | сўмда |

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди) | | | Жами |
|------------------------|--|--|--|---------------------|
| | 4225000 | | | |
| Январь | 2 661 100,00 | | | 2 661 100,00 |
| Февраль | 2 661 100,00 | | | 2 661 100,00 |
| Март | 2 712 275,00 | | | 2 712 275,00 |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| Жами йил бўйича | 8 034 475,00 | | | 8 034 475,00 |

Жами 8034475,00 сўм

Саккиз миллион ўттиз тўрт минг тўрт юз етмиш беш сўм 00
тыйин
сумма сўз бислан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан _____ сўм ёки _____ % *** шартноманинг умумий суммасидан
_____ % ***20 _____ ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблаги олувчи ва БМЖ маблаги олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига _____ % жорий ойнинг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблаги олувчи ва БМЖ маблаги олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, аюла хизматлари ва конун хужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишилар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш холларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



М.У.

Буюртмачи бош бухгалтери

Мирзаева Д.М
ФИИ
(имзо)

Каландаров И. Я.
ФИИ
(имзо)

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

«___» 20 ___ й.

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

«___» 20 ___ й.

Konteyneri bo'lgan yuridik shaxslar uchun qattiq maishiy chiqindilarni to'plash
va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha

SHARTNOMA № 17

000502

2022 yil 10 01

Toshkent viloyati

"Toza hudud" DUK _____ bundan buyon matnda "IJROCHI" deb ataluvchi tomonidan,
Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvehi rahbar M. Klyapko bir tomonidan,
Kim Yuryev etib _____ bundan buyon matnda "ISTE'MOLCHI"
deb ataluvchi nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi rahbar D. Serega
ikkinchisi tomonidan ushbu shartnomani, quyidagi maqsadlarda tuzdilar,

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. Mazkur shartnomaga binoan Ijrochi bilan Iste'molchi o'rtaida qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib
ketish xizmatlari bo'yicha (QMCH) to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqa o'rnatiladi.

Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa Iste'molchi joylashgan hudud Kim Yuryev manzildan bir
oyda _____ marotaba dona (770 l., 1100 l., 6 m³) chiqindi saqlash konteynerdag'i (QMCH) qattiq maishiy
chiqindilarni Iste'molchi joylashgan hudud manzilidan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini
bajarishni o'z zimmasiga hamda "Yo'naliш varaqasiga" buyurtmachini arizasiga bajargan ishlari yuzasidan belgi
qo'ydiradi.

1.2. QMCHni umumiy to'planishi bir oyga 52,31 m³, bir yilga 157 m³ tashkil etadi.

2. KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR UCHUN HISOB-KITOB QILISH

2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx har bir m³ QMCH uchun 44,500 so'm,
QQS bilan 51175 so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnomu bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lovning umumiy qiymati 8034425 so'm tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki boshqa normativ huquqiy hujjalarga asosan ko'rsatilayotgan xizmatlar
qiymati o'zgargan taqdirda, amaliyotga tadbiq etilgan yangi qiymat bo'yicha qattiq va maishiy chiqindilarni olib
ketish xizmatlari "Ijrochi" tomonidan amalga oshiriladi.

Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarining o'zgargani
to'g'risida Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lolnlar osish yo'li bilan shuningdek, ommaviy axborot vositalari
orqali Isre'molchiga ma'lum qilish.

2.3. Iste'molchilar, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar
uchun to'lovlarni bevosita Ijrochining bank xisob raqamiga 100 foiz miqdorida xar oylik oldindan to'lov asosida
amalga oshirilishi shart.

2.4. Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovi hisoblash
tegishli davrlarda amalda bo'lgan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlar uchun tariflar bo'yicha
amalga oshiriladi.

2.5. Juridik manzil, bank rekvizitlari, korxona nomlari yoki QMCH hajmi o'zgargan taqdirda, tomonlarni 10
kun oldin yozma ravishda ogohlantirish kerak.

2.6. Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha tegishli bo'lмагan sifatdagi yoki belgilangan
muddatlardan ortiq uzilishlar bilan xizmatlar ko'rsatilganda, ushbu davrda xizmatlar uchun to'lovlar kamaytiriladi.

2.7. Ijrochi tomonidan Iste'molchining hayoti, salomatligi va mulkiga ziyon yetkazilgan holatlarda yetkazilgan
zarar fakti qayd etilgan dalolatnoma tuziladi, u Ijrochi va Iste'molchilarning vakillari tomonidan imzolanadi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

Iste'molchi tomonidan shartnomu shartlarini bajarmaganligi uchun neustoyka (jarima yoki penya) to'lanishini
qonun doirasida talab qilish;

Ijrochi qonun hujjalariiga muvofiq; belgilangan normativ-huquqiy aktlarga va boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.2. Ijrochi quyidagilarga majbur:

Belgilangan muddatlarda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishni amalga oshirish; qonunchilikda, mazkur Qoidalarda va shartnoma belgilangan shartlarga muvofiq Iste'molchiga zarur sifatdagi qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan muddatlarda Iste'molchining buyurtmanomalarini bajarish; qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimini tatbiq etish va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchilarning murojaatlari (arizalari, takliflari, shikoyatlari), shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;

Iste'molchining murojaatiga asosan, alohida ko'rsatilgan narx bo'yicha buzilishdan qolgan qurilish chiqindilarni, gruntni, agrotexnik ishlardan chiqarilgan chiqindilarni (shoh-shabbalar, butalar va boshqalar), olib chiqib ketish uchun qo'shimcha transport vositasini ajratish;

chiqindi to'plash shaxobchalari va konteynerlarining holatini nazorat qilib borish, ularning tegishli holatda bo'lishini ta'minlash;

Iste'molchining murojaatiga asosan, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun konteynerlarning zarur miqdorda bo'lishini ta'minlash;

aholining hayoti, salomatligi, shuningdek atrof-muhit uchun xavfli bo'lган bakteriyalarning va boshqa zararli moddallarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib boorish (konteynerlar va axlat to'plash shaxobchalarini dezinfeksiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan);

To'planib qolgan chiqindilarni hisobini olib borish;

qattiq maishiy chiqindilarning ikkilamchi xom-ashyolarini qabul qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxonalarga belgilangan tartibda topshirilishini ta'minlash;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarining o'zgargani to'g'risida Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lonlar o'sish yo'li bilan, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish;

Iste'molchiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik va ularni bartaraf etish choralarini qo'llash;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun to'lovlар hisob-kitobining holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlар bo'yicha qarzdorlarning yo'qligi to'grisidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim eyish;

San Pil Ruz № 0297-11 binoan chiqindilarni yig'ish shaxobchalarini va qutilarni dezinfeksiya qilish;

3.3. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega: shartnoma asosida, o'ziga zarur bo'lgan, belgilangan sifatdagi, hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar bermaydigan hajmdagi xizmatlardan foydalanish.

Ijrochidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining hajmi va sifati, ularning ko'rsatilishi shartlari, xizmatlar uchun to'lov miqdorlarining o'zgargani va to'lov tartibi to'grisidagi axborotlarni olish, xizmatlar uchun elektron to'lov tizimi orqali to'lash va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

Ijrochi tomonidan shartnoma majburiyatlarini sifatsiz bajarilgan hollarda Ijrochiga yozma yoki telefon orqali shikoyatlar taqdim etish va Ijrochidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmagan faktini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;

shartnomaga muvofiq, vaqtincha ishlab chiqarish ishlari bo'limgan, hujjalarni tasdiqlangan davr yoki shartnomada belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmagan davr uchun qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatlaridan to'liq yoki qisman ozod qilinish;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari sifatsiz amalga oshirilsa, agar Ijrochi o'z vaqtida shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab qilib hududga murojaat etish.

Iste'molchi qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

xizmatlari uchun shartnoma tuzish va uning talablarini bajarish;

QMCH tashlanadigan konteynerlarni qurilish va yirik hajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida shartnomalar tuzish va haq to'lash;

Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarning erkin yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz holda saqlashni ta'minlash;

QMCHni o'z vaqtida tashib chiqib ketilishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yo'naliш jadvali buzilgan hollarda _____ telefonga telefonagramma yo'llash orqali Ijrochiga ma'lumot berish;

Bajarilgan ishning hajmini Ijrochining hujjalarda Iste'molchi vakilining imzosi va korxona muxri bilan tasdiqlab borish;

Har oyning boshida o'tgan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini ko'rsatuvchi hisob dalolatnomasini rasmiylashtirish;

Har oyda oyning oxirigacha o'tgan oyda bajarilgan ishlarning dalolatnomasiga asosan pul mablag'larini Ijrochining hisob raqamiga o'tkazish hamda rejaviy ish hajmiga qarab oldindan 100% kam bo'limgan to'lovlarni amalga oshirish;

qattiq maishiy chiqindilarni ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mib tashlash uchun ajratilmagan joylarga, shuningdek harakatdagi avtotransport vositasidan yo'laklar va ko'chalarning transport yuradigan qismiga tashlamaslik;

chiqindilarni korxona hududida va ruxsat etilmagan joylarda ko'mib tashlashga yo'l qo'ymaslik.

4. SHARTNOMALARINI BAJARMAGANLIK YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIK UCHUN TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Iste'molchi quyidagilarga javobgar:

Shartnomalarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun;

QMCHni olib chiqib ketish xizmatiga o'z vaqtida to'lov to'lamaganligi uchun;

Shartnomalariga ko'ra alohida belgilangan joylarda yig'ilgan QMCHni olib chiqib ketish xizmatini buzganligi uchun;

4.2. Iste'molchi shartnomada ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilgan har bir kuni uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'loving 50% dan oshmagan miqdorida, penya to'laydi.

4.3. Ijrochi quyidagilarga javobgar:

ko'rsatilayotgan xizmatlarning muddatlari va kamchiliklarini bartaraf etish muddatlari buzilganligi aniqlangan holatlarda;

ko'rsatilayotgan xizmatlarning muddatlari va kamchiliklarini bartaraf etish uchun tayinlangan jarimani o'z vaqtida to'lamaganligi uchun;

Ijrochida mavjud bo'lган qo'riqlanadigan va qo'riqlanmaydigan CHYMDagi konteynerlarning texnik holati uchun;

Ijrochi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar yoki sifatsiz xizmatlar oqibatida ishchilarning hayotiga, sog'ligiga va Iste'molchining mulkiga yetkazilgan zarar uchun;

4.4. Ijrochi tomonidan xizmat ko'rsatilmasa Iste'molchiga kechiktirilgan har bir kuni uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,5% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'loving 50% dan oshmagan miqdorida, penya to'laydi. Penya to'lash tomonlarni shartnomalarini bajarishdan ozod etmaydi.

5. SHARTNOMA MUDDATI

5.1. Shartnoma muddati "10" 01 2022 yildan "31" 12 2022 yilgacha belgilanadi.

5.2. Ushbu shartnomaga oid bo'lgan O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tomonlarning roziligi bilan shartnomaga tegishli qo'shimcha va o'zgartirish kiritish uchun qo'shimcha shartnoma tuzish;

5.3. Shartnomani muddatidan oldin to'xtatmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu haqida bir oy oldin yozma ravishda boshqa munosabat bildirmasalar shartnoma bekor qilingunga qadar o'z kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.

5.4. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Tomonlar orasida kelib chiqqan barcha kelishmovchilik va tortishuvlar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, tomonlar tomonidan hal etilmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida belgilangan qonunchilikga binoan sud orqali hal etiladi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI:

"IJROCHI"

"ISTE'MOLCHI"

Manzil: _____

Tel: "TOZA XUDUD" DUK
Toshkent vil. Quyichurchug tum. Do'stonod
X/R 2021 0000 6007 8180 0047

Bank nomi: IPOTEKABANK Do'stobod filiali
MFO 00408 INN 304 938 624
Tel. +99894 778 18 96, +99894 873 35 35

H/r: _____

MFO _____ STIR _____

OKED _____

M. HYZROV *rahb*
(F.I.SH rahbar)



Kajim Kuzayev 7 etib

Manzil: *Dymov 18 u*

Tel: _____

Bank nomi: *oqqozgari dars*

H/r: *6002286-171332031100251012*

MFO STIR *303257089*



OKED

D. Leyzaev
(F.I.SH rahbar)

Izoh: Yuridik shaxsiy bilan tuzilgan shartnomada, tegishli budjetdan mablag' oluvchining G'aznachilik bo'linmasida ochilgan shaxsiy hisob varag'i ko'rsatiladi.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.
 2. Loyihaning nomi: “Toza hudud” DUK Quyi Chirchiq tumani filiali bilan Quyi Chirchiq tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limi o‘rtasida qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari to‘g‘risidagi shartnoma loyihasi.
 3. Loyerha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Quyi Chirchiq tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 2022 yil 24 yanvar kuni elektron tizimga kiritilgan.
- “Toza hudud” DUK Quyi Chirchiq tumani filiali bilan Quyi Chirchiq tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi o‘rtasida tuzilayotgan shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Taraflar o‘rtasida tuzilayotgan mazkur shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talablariga, 1998 yil 29 avgustdagи “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa tegishli qonun hujjatlari talablariga mos ravishda tuzilgan.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda tomonlarga javobgarlik choralar qo‘llanilishi, kelis’hmovchiliklar paydo bo‘lgan taqdirda o‘zaro hal qilish yoki tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilish tartibi, barcha qoshimcha va o‘zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama imzolanib tasdiqlangan holda tuzilishi nazarda tutilgan.

Shartnoma loyihasida taraflarning javobgarligi va nizolarni hal yetish tartibi va boshqa kelishilgan barcha shartlar qonun hujjatlari talablariga mos keladi va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsul’ti



T.Chegaboyev

2022yil «26» yanvar